

SUD TIZIMIDAGI YANGI ISLOHOTLAR, SUD-HUQUQ TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI

Xushnazarova Feruza Akramjon qizi

Toshkent davlat transport universiteti,

Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs Yu-2 guruh talabasi.

Kasimova A.A.

Ilmiy rahbar: Xalqaro ommaviy huquq kafedrasи,
dotsent yuridik fanlar nomzodi.

Pochta manzili: feruzaxushnazarova025@gmail.com

Telefon raqami: +998994655757.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14309528>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud huquq tizimining raqamlashtirilishi jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalarning sud jarayonlariga joriy etilishi, elektron hujjatlar, masofaviy sud ishlarini o'tkazish va online xizmatlar orqali fuqarolarga qulayliklar yaratish kabi jihatlar ko'rib chiqiladi. Raqamlashtirish jarayoni sud tizimining samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash vaadolatni amalga oshirishda muhim rol o'yndaydi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, zamonaliviy texnologiyalardan foydalanish orqali sud tizimining sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sud tizimi, raqamlashtirish, elektron hujjatlar, masofaviy sud ishlarini o'tkazish, onlayn xizmatlar, shaffoflik, sud jarayonlari, fuqarolar huquqlari, sud samaradorligi, huquqiy muhit, raqamli texnologiya, adolat.

НОВЫЕ РЕФОРМЫ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ, ЦИФРОВИЗАЦИЯ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы судебной системы в Узбекистане и процесс цифровизации судебно-правового порядка. М статья предоставляет информацию о мерах, направленных на повышение эффективности судебной системы, обеспечение прозрачности и защиту прав граждан. Особое внимание уделяется внедрению цифровых технологий, таких как электронные судебные документы, дистанционное проведение судебных разбирательств и онлайн-услуги. Эти изменения направлены на улучшение правовой среды в Узбекистане и упрощение доступа граждан к судебным услугам.

Ключевые слова: Судебная система, цифровизация, электронные документы, дистанционные судебные разбирательства, онлайн-услуги, прозрачность, судебные процессы, права граждан, эффективность суда, правовая среда, цифровые технологии, справедливость

NEW REFORMS IN THE JUDICIAL SYSTEM, DIGITIZATION OF THE JUDICIAL SYSTEM

Abstract. This article analyzes the reforms in the judicial system of Uzbekistan and the process of digitizing the legal framework. It provides insights into the measures aimed at enhancing the efficiency of the judiciary, ensuring transparency, and protecting citizens' rights. The discussion highlights the implementation of digital technologies, including electronic court

documents, remote court hearings, and online services. These changes are focused on improving the legal environment in Uzbekistan and making judicial services more accessible to citizens

Key words: judicial syste, digitization, electronic documents, remote court hearings, online services, transparency, judicial processes, citizens' rights, court efficiency, legal environment, digital technologies, justice.

1.Dolzarbliyi. Sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish bugungi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlar adliya tizimlarining samaradorligini oshirish va shaffofligini ta'minlash uchun raqamli texnologiyalarni faol joriy qilmoqda. Masalan, BMTning "Adliya uchun raqamli transformatsiya" dasturi doirasida, 2021 yilda 73 mamlakat sud tizimini raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirgan. Bu jarayonlar, sud faoliyatini tezlashtirib, fuqarolar va biznes uchun qulay sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston ham sud tizimida islohotlar o'tkazish jarayonida raqamlashtirishni muhim yo'nalish sifatida belgilab olgan. 2020-yilda mamlakatda "Raqamli O'zbekiston" strategiyasi qabul qilindi, bu esa sud tizimini raqamlashtirishga katta imkoniyatlar yaratdi. 2022-yilda amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasida sudlarga elektron hujjat aylanishi tizimi joriy etildi, bu esa ish jarayonini 30% ga tezlashtirdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, raqamli platformalar orqali fuqarolardan tushgan arizalar soni 40% ga oshgan. Bu raqamlar, fuqarolar uchun sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini va ularning sud tizimiga ishonchlarini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Dolzarblikning yana bir jihat shundaki, raqamlashtirish jarayoni, mamlakatda xalqaro standartlarga mos kelish va xalqaro reytinglarni oshirishga yordam beradi. Masalan, Jahan bankining "Doing Business" reytingida sud tizimining samaradorligi muhim omil hisoblanadi.

Ushbu reytingda yuqori o'rinnlarni egallash uchun sud tizimining shaffofligi va samaradorligi zarur.

Shu sababli, sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish nafaqat adliya sohasida, balki umumiyligi iqtisodiy taraqqiyotda ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar, fuqarolar va biznes uchun qulay sharoitlar yaratib, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

2.Metodlar. Mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjalari, hisobotlar va maqolalar ko'rib chiqildi. Bu jarayon, sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirishning nazariy asoslarini shakllantirishga va mavjud bilimlarni tahlil qilishga imkon berdi. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish orqali o'zaro taqqoslashlar amalga oshirildi. Maqola sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish jarayonining ahamiyatini, foydalanuvchilar tajribasini va amaliyotdagi o'zgarishlarni batafsil o'rganishga imkon berdi. Natijada, aniq xulosalar chiqarishga va takliflar ishlab chiqishga yordam beradi.

3.Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish jarayonlarining bir qancha ijobiyligi ta'sirlarini ko'rsatdi: Samaradorlikning oshishi: Raqamlashtirish orqali sud ishlarining ko'rsatkichlari 30% ga tezlashdi. Elektron hujjat aylanishi tizimi ish jarayonini soddalashtirdi va vaqtini tejadi. Fuqarolar ishtiroti: So'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, fuqarolar orasida sudga onlayn murojaat qilish 40% ga oshgan. Bu, raqamli xizmatlarning qulayligi va mavjudligini aks ettiradi. Ishonchning kuchayishi: Intervyularda sud

xodimlari va fuqarolar raqamlı transformatsiya jarayonlarini ijobjiy baholadi, shuningdek, sud tizimiga bo'lgan ishonchning oshayotganini ta'kidladilar. Statistik o'zgarishlar: O'zbekiston Respublikasining Oliy sudining ma'lumotlariga ko'ra, raqamlashtirishdan so'ng sud jarayonlaridagi xatoliklar va kechikishlar 25% ga kamaydi. Bu natijalar, sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirishning muhimligini va ularning fuqarolar hayotiga ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish ikkinchi ustuvor yo'naliш sifatida belgilangani bejiz emas. Zero, davlat va jamiyatni tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud mustaqilligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi samarali kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo'naliшida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, sudlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida, Sudyalar oliy kengashi tashkil qilindi. Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish vakolati berildi. Sudya lavozimida faoliyat yuritishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning o'z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o'tkazildi. Sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o'z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o'tkazish va boshqa zo'ravonlik holatlari qat'ian taqiqlandi.

Sudda ishlarni ko'rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro'yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Sudlar faoliyatining shaffofligi, ochiqligi yo'lida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalarida ko'rib chiqildi. Ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.

Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi joriy etilgani alohida e'tirofga loyiq. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini onlayn yoritib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni ko'rib chiqish muqobililik asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Albatta, malakali va yetuk sudyalar korpusini hamda sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi jamiyatda sud idoralariga bo'lgan ishonchni oshirish,adolat barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash, tom ma'noda sudni "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish hamda odil sudlovning yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.¹

Amaldagi bu islohotlar bilan sud-huquq tizimida qonuniylik, oshkorallilik, fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi, ularning huquq va erkinliklari kafolatlanganligi, aybsizlik prezumpsiyasi hamda sudyalarning mustaqillik prinsiplari yanada mustahkamlandi.

¹ <https://strategy.uz>

Shuningdek, investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi. Endi, bundan buyon prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiysi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "Bir sud – bir instansiya" tamoyili, shuningdek, tumanlararo sndlarning qarorlarini viloyat sndlari tomonidan, viloyat sndlarning birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'ati tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv instituti joriy qilindi. U mamlakatda jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligining tatbiq etilishi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasi yuqori pog'onaga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Bosh prokuror va o'rinnbosarlarining sudning qarorlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqi bekor bo'ldi. Sudya faoliyatining samaradorligini elektron reyting orqali ochiq va shaffof baholashni ta'minlashdigan aniq mezonlar (reyting dasturi) amaliyotga tatbiq etildi. Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish maqsadida tuzilgan sud inspeksiyasi, shubhasiz, sudyalar daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda, reabilitatsiya asoslariga ko'ra, jinoyat ishi tugatiladigan bo'ldi.

Bugun mamlakatning sud tizimida gender tenglikni ta'minlash, ayollarning sud-huquq sohasidagi mavqeini oshirish, ayniqsa, ayol sudyalarni qo'llab-quvvatlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yilda 149 ayol sudya faoliyat yuritgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 157 tani tashkil etdi. 2021-yilning I-choragida mamlakatda jami 1214 nafar sudyadan 1053 nafari erkak bo'lib, ayol sudyalar 161 ta, ya'ni 15,3% ni tashkil etdi. Shuningdek, bugunda oliy sudda faoliyat yuritib kelayotgan jami 63 sudyadan 15 nafari ayol sudyadir (31,25%).

O'zbekiston tarixida ilk marotaba davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari hamda g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish borasida tizim yo'lga qo'yildi.

Konstitutsiyaviy huquqni amalda ta'minlash maqsadida yaratilgan ushbu tizim qisqa muddatda o'z natijasini bera boshladi. Misol uchun, 2019 va 2020-yillar mobaynida ma'muriy sndlар tomonidan 31 321 ta ariza ko'rilib, shundan 21 272 tasi yoki salkam 67,9% i qanoatlantirilgan. Jumladan, hokimlarning 2852 ta qarori noqonuniy deb topilib, fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan.

O'tgan 4 yil mobaynida 2770 nafar, 2020-yilda 781 kishiga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi, 3434 nafar shaxs sud zalidan ozod qilinib, 5958 fuqaroga nisbatan asossiz qo'yilgan moddalar ayblovlardan chiqarildi yoki o'zgartirildi. Bu, shubhasiz, sud-huquq sohasida erishilgan ulkan yutuqlardan biridir.²

Amaldagi barcha islohotlar inson huquqlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarini sud yordamida ishonchli tiklash va eng asosiysi inson qadrini kotarishga qaratilgan bolib, sud tiziming ishslash samaradorligini oshirish, uning mustaqilligi va shaffofligini ta'minlash hamda korruptsiyadan holi ekanligini yanada mustahkamlashga qaratilgan

² <https://strategy.uz>

Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish masalasi 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidaham o‘z aksini topgan. Ushbu strategiyada mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish hamda davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash, qynoqlarning oldini olish bo‘yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo‘nalishda maxsus qonun qabul qilish, yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqlari qonunchiligini kodifikatsiyalash bilan birgalikda sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirishham ustuvor vazifa sifatida belgilangan2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentyabrdagi „Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida—gi PQ-4818-sonli qaroriqabul qilinganligi, sudlar tizimidagi faoliyatni yanada takomillashishiga asos bo‘ldi. Ushbu qarorga asoslanib, 2020-2023-yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlandi. Bu dasturga ko‘ra, sndlarda sud majlisini taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlis bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish, apellyatsiya va kassatsiya instansiysi sndlarda ishlarni sudyalaro‘rtasida avtomatik ravishda taqsimlash, barcha ishtirokchilarni sud majlislarining vaqt va joyi haqida —SMSI xabar orqali bepul asosda xabardor qilish, sud ishlarni davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish belgilangan3. Bugungi kunga qadar sud-huquq sohasini raqamlashtirish yo‘lida bir qancha amaliy qadamlar tashlandi. Bu sohada eng katta qulaylikni yaratib bergen tizim O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan yaratilgan My.sud.uz elektron sud xizmati portalibo‘ldi. Bu portal orqali birinchidan, agar fuqarolarda ariza, taklif, shikoyat yoki hal etilmagan muammolar mavjud bo‘lsa, fuqarolik, jinoyat yoki iqtisodiy sud bo‘lishidan qat‘iy nazar, ushbu sudga murojaatni elektron tarzda yuborishi mumkin. Bu murojaat ro‘yhatga olinib, ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, fuqarolar bu tizim orqali ochilgan „Shaxsiy kabinet— orqali murojaat holatini onlayn kuzatib borishlari mumkin. Ikkinchidan, My.sud.uz elektron sud xizmati portalida, „Sud majlislari jadvali— nomli alohida bo‘lim mavjud bo‘lib, bu fuqarolarga sudmajislari jadvali bilan tanishish –sndlarda ishlarni ko‘rib chiqishga tayinlangan sanasi va vaqtin haqida onlayn tarzda xabardor bo‘lib borish imkonini beradi. Endi fuqaro sud majlisi vaqtini bilish uchun sarson bo‘lmaydi, avvalgidek, sudga kelib yoki suda yordamchilariga qo‘ng‘iroq qilib yurmaydi, balki bu bo‘limga kirib tegishli sud va sanalarni tanlasa bas, qaysi ish qachon ko‘rilishi haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi. Uchinchidan, bu tizimda davlat boji kalkulyatori va elektron to‘lov tizimi ham ishga tushirilgan bo‘lib, bu fuqarolarga ancha yengillik keltiradi. Avvalari, fuqarolar ish sudda ko‘rilishi uchun davlat bojini bankka borib to‘lashlari va kvitansiyani sudga taqdim etishlari kerak bo‘lgan. Bu tizim orqali esa, endilikda, kalkulyator orqali har qanday ishning boj miqdorini hisoblash va bankka bormasdan turib, elektron tizim orqali uni to‘lash mumkin. Bu ham fuqarolarning ishini osonlashtiradi. My.sud.uz tizimining eng ijobiy jihat shundaki, unda sudga murojaat qilish namunalari ham keltirilgan. Bunamunalar dunyoning birorta ham sud tizimida uchramaydigan interaktiv xizmat bo‘lib, bu fuqarolar sndlarga murojaat qilishda hujjatlarning tayyor namunalardan mutlaqo bepul foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu tizim orqali rahbariyat qabuliga ro‘yhatdan o‘tish, ish holatini onlayn kuzatib borish, sud xabarnoma va chaqiruvlarini va qarorlarini ham onlayn tartibda olish mumkin.

Sudlarga apellyatsiya va cassatsiya shikoyatini elektron yuborish ham raqamlashtirilgan holatga o'tmoqda. Bu bo'yicha Oliy Sud tomonidan „E-XSUD“ axborot tizimitashkil qilingan bo'lib, fuqarolar shikoyatlarni onlayn tartibda yuborishi mumkin. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, sud-huquq sohasini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan bu islohotlar o'z samarasini bermoqda. „World Justice Project— xalqaro nohukumat tashkilotining 2020-yil uchun huquq ustuvorligi indeksie'lon qilindi. huni aytib o'tish lozimki, bu indeksning qamrovi yildan yilga ortib bormoqda.

2020-yil bu indeks bo'yicha 128 ta mamlakat baholandi. Unda O'zbekiston maksimal 1 balldan 0,47 ballni to'pladi va o'tgan yilgi indeksdan 4 pog'ona yuqoriladi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida eng yaxshi ijobiy o'zgarishni qayd etgan.³

Xulosa qilib aytganda, sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish, taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonlar, adliya sohasini zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirib, sud faoliyatini yanada samarali va shaffof qilish imkoniyatini yaratadi.

Taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri — fuqarolar uchun qulay va adolatli sud tizimini ta'minlashdir. Raqamlashtirish orqali sud jarayonlari tezlashadi, ish yuritish soddalashtiriladi va natijada adliya tizimiga bo'lgan ishonch kuchayadi. Onlayn platformalar va elektron xizmatlar fuqarolarga sudga murojaat qilishda qulayliklar yaratadi, bu esa adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli ma'lumotlar bazalari sud organlariga zarur ma'lumotlarni tez va oson olish imkonini beradi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini yanada samarali qiladi. Bunday islohotlar, o'z navbatida, taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda yordam beradi: iqtisodiy o'sish, sarmoyalarni jalb qilish va xalqaro reytinglarni oshirish.

Umuman olganda, sud tizimidagi islohotlar va raqamlashtirish, taraqqiyot strategiyasi doirasidaadolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamdir. Bu jarayonlar, mamlakatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarining huquqlarini himoya qilishda asosiy omil bo'ladi.

REFERENCES

1. <https://strategy.uz>
2. www.sciencebox.uz
3. O'zbekiston respublikasi Taraqqiyot strategiyasi

³ www.sciencebox.uz